



AYOLNING TUSH VA RO‘YODAGI AKSI (Xan Ganning “Vegetarianka” asari misolida)

Davronova M

Annotatsiya: Ushbu maqolada Janubiy Koreya yozuvchisi Xan Ganning “Vegetarianka” romani adabiy psixologizm va metaforik obrazlar prizmasi orqali tahlil qilinadi. Asar qahramoni Yong-hening tushlari va uning reallikdagi xatti-harakatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik, ayol tabiatining jamiyat tazyiqiga bo‘lgan isyoni hamda “o‘simlikka aylanish” metaforasining badiiy funksiyalari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Xan Gan, “Vegetarianka”, Yongxe, tush metaforasi, ayol obrazi,

Bugungi koreys adabiyoti jahon adabiyotining eng ko‘p o‘qilayotgan va murojaat etilayotgan adabiyotga aylanib ulgurdi. Bugungi kunda Xan Gan singari adibalar ijodi esa koreys adabiyotining jahon arenalaridan joy olayotganini ko‘rsatmoqda. Koreys adabiyotining zamonaviy durdonasi, Buker mukofoti sovrindori Xan Ganning “Vegetarianka” (The Vegetarian) romani o‘zbek kitobxonlari orasida ham katta qiziqish uyg‘otdi. Xan Ganni dunyoga tanitgan, uni nobel mukofotiga sazovor etgan asari “Vegetarianka”dir. Aslida, zamonaviy adabiyotda inson ruhiyatining eng tub qatlamlarini tadqiq etish yetakchi tamoyillardan biriga aylangan. Xan Ganning “Vegetarianka” asari an‘anaviy patriarhal jamiyatda ayol shaxsining o‘zligini anglash va himoya qilish yo‘lidagi fojiaiy urinishlarini tasvirlaydi. Asarning markaziy nuqtasi qahramonning bir kechada ko‘rgan tushi va ushbu tushdan so‘ng uning go‘shdan voz kechishi (vegetariancha turmush tarziga o‘tishi) bilan boshlanadi. Asar roman janrida yaratilgan bo‘lib, u uch qismga ajratilgan. Romanning birinchi qismi “Vegetarianka”, ikkinchi qismi “Mangol dog‘i”, uchunchi qismi esa “Daraxtlar alangasi” deb nomlanadi. Asar personaj tilidan bayon etilib, unda bosh qahramonning turmush o‘rtog‘i Yonxe haqidagi ma‘lumotlar taqdim etiladi. Biz, mazkur asarda odatiy holatga aylanib ulgurgan psixologik tasvirlarni kuzatmaymiz. Voqealar bayoni ham juda oddiy. Biroq asarni o‘qish jarayonida tush va xush tushunchalariga duch keliamizki, bu tushunchalarning biri aynan Yonxe tasavvurlari, xayoloti bilan bog‘liq. Adiba asarni Yonxe portreti bilan boshlaydi: “Bo‘yi na baland, na past edi; sochi ham na uzun, na qisqa qilib qirqilgan. Sarg‘ish tusli quruq terisi, oddiy ko‘zlari, biroz turtib chiqqan yonoq suyaklari bor edi. U xira rangdagi kiyimlar kiygan edi – go‘yo o‘zining individualligini namoyon qilishdan qo‘rqqandek, yorqin ranglarni tanlashga jur‘at etolmasdi. Men kafedagi stol yonida uni kutib o‘tirganimda, u



eng oddiy modeldagi qora tuflida yonimga keldi. U na tez, na sekin, na dadil, na tortinchoq qadamlar bilan yurardi.

Unda alohida bir joziba yo‘q edi, biroq ko‘zga tashlanadigan kamchiligi ham sezilmasdi. Shu sababli u mening xotinimga aylandi”⁵². Demak, Yonxe u darajada ko‘zga tashlanmaydigan ayol. Hatto uning turmush o‘rtog‘i ham mazkur fikrlarimizni ta’kidlaydi.

Roman syujeti asta-sekinlik bilan rivojlanadi. Biz nega aynan bosh qaharmonning turmush o‘rtog‘i hayvon go‘шти iste’molidan bosh tortganligini aniqlay olmaymiz. Asarda bosh qahramon yarim tundna uyg‘onishi, uning ayoli esa tinimsiz muzlatgichga qarab o‘tirgan qiyofasiga duch kelamiz. Yonxedan so‘raganida esa tush ko‘rganligini aytishi bilan kifoyanganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Tuhslar takrorlanishi, ayolning uyqusiz holati, sog‘lig‘ini yo‘qotishini bosh qahramon bir-bir tasvir etib boraveradi. Biroq undan hech qachon qanaqa tush ko‘rayapsan deb so‘ramasligi, uning hayotiga qiziqish uyg‘otmasligi, befarqligi, bizningcha ayolni abgor ahvolga olib keladi. Biroq, asarda Yonxe o‘ziga xos xarakterga ega obraz sifatida talqin etiladi. Yangi uyga ko‘chishining ikkinchi kuniyoq bu uyda boshqa hayvon go‘شتidan ovqat qilinmaydi singari qat’iy qarori, uning xarakteridan dalolat beradi.

Yongxening tushlari asarning kompozitsion asosi hisoblanadi. Romanda tush shunchaki tungi xayolot emas, balki qahramonning ongostiga yashiringan qo‘rquvlar va zo‘ravonlikka nisbatan nafratning portlashidir. Aslida, asarni o‘qish jarayonida Yonxening tushiga ham duch kelamiz. Uning tushida esa qachonlardir otasini tishlagan itning ko‘zlari olov singari uni ta’qib qila boshlaydi. Bu ko‘zlar uni ruhiyatiga shu darajada ta’sir etadiki, natijada u go‘شت yeyishdan ham voz kichadi. Nafaqat go‘شت yeyishdan balki uni hidiga ham toqat qila olmay qoladi. Albatta, kitobxonda nega bu darajada ta’sir etdi degan savol uyg‘onadi. Xonxening tushi orqali bu savolga ham javob topamiz. Otasini it tishlaganidan so‘ng bu itdan qasos olishga harakat qiladi. Natijada uni qo‘lga tushirib, uyiga olib keladi. Itni o‘ldirib, uning go‘شتidan taom tayyorlaydi. Oila a’zolari va qo‘shnilarga-da, bu taomni ulashadi. Yonxe ham mazkur taomni ishtaha bilan hazmi taom etadi. Biroq vaqtlar o‘tishi bilan bu it uni tushlarida ta’qib eta boshlaydi. Hatto xush holatida ham bu ta’qibdan qochib qutila olmaydi. Uni eshitadigan, dardiga malham bo‘ladigan inson yo‘q. Har doim tushida o‘zini qonlar girdobida ko‘radi. Natijada esa tush va xush o‘rtasidagi masofani yo‘qotadi.

To‘g‘ri, Yongxe tushida qonli go‘شت parchalarini ko‘radi. Bu go‘شت nafaqat iste’mol mahsuloti, balki insoniyatning bir-biriga nisbatan ko‘rsatadigan yirtqichligi, jamiyatdagi zo‘ravonlik va erkaklar hukmronligining

⁵² Хан Ган. Вегетарианка. – Москва: АСТ, 2025. – С. 3-4.



ramzidir. Tush qahramonga o'zining ham shu "yirtqichlar" dunyosining bir bo'lagi ekanligini anglatadi. Go'shtdan voz kechish — bu insoniy vahshiylikdan voz kechishga urinishdir. Biroq bu voz kechishni uning na turmush o'rtog'i, na oila a'zolari tushunadi. Hatto turmush o'rtog'i undagi o'zgarishlarni ko'rib, Yonxening opasi, onasi va otasiga ham gapirib beradi. Shu yo'l orqali Yonxega o'z ta'sirini o'tkazmoqchi. Yonxe uyidagi ziyofatda ham unga bo'lgan bosimga duch kelishimiz mumkin. Otasi hatto uning og'ziga majburlab go'sht soladi va uni yutishga majbur etadi, hatto kaltaklashdan ham tap tortmaydi. Yonxening ahvoli yomonlashganligini, hushi o'zida emasligi barchani ruhiy qiynoqqa sola boshlaydi. Hatto kasalxonaga olib borilganida ham yana Yonxega go'sht iste'mol qildirish bosimi davom etadi.

Qizig'i shundaki, Yonxe hech qachon voqealarni o'z nomidan so'zlab bermaydi. Biz uni eri, pochchasi va opasining nigohi orqali ko'ramiz. Yuqorida ta'kid etganimizdek, erining nigohida Yonxe "eng oddiy", "e'tibor tortmaydigan" va "itoatkor" ayol sifatida tasvirlanadi. Bu yerda ayolning ro'yodagi aksi jamiyat tomonidan belgilab berilgan "ideal xotin" andozasiga tushirilgan. Pochchasi nigohida (asarning ikkinchi qismida) ayol tanasi estetik va shahvoniy obyektga aylanadi. Uning tanasidagi mo'g'ul dog'i (gul shaklidagi dog') Yonxeni tabiatga yaqinlashtiruvchi element sifatida talqin etiladi. Opasi nigohida esa, xush va tushni anglay olmaydigan, qaysar va o'z dardini yenga olmagan singil qiyofasiga kiradi (asarning uchinchi qismi). Biroq bularning barchasi Yonxening asl qiyofasini ko'rsata olmaydi, uni tushunishga esa ularda mehr-shafqat va muhabbat yetishmaydi.

Yonxe asar davomida o'zining "insoniy" qiyofasini (go'shtxo'rlikni) rad etib, "o'simlik" (daraxt) bo'lishga intiladi. Bu adabiyotshunoslikda metamorfoza (evrilish) hodisasi sifatida baholanadi. Albatta bu kabi ko'rinish ham tiriklikning bir shaklidir. Qahramon endi suv va quyosh nuridan ozuqa olishga harakat qiladi, kiyimlarini yechib tashlaydi (ijtimoiy niqoblardan voz kechish). Bu holat asarda bir necha marotaba takrorlanadi. Yalang'och ko'cha kezishi va qo'lida qushchani ezishi bilan asarning birinchi qismi o'z yakuniga yetadi.

Yonxening go'shtdan voz kechishi hayotga nisbatan isyon bo'lsa-da, biroq bu isyon agressiv darajada emas. U o'zini o'zi yo'q qilish orqali dunyoviy yovuzlikdan qochishdir. Uning dushmani esa romanda uning tanasi sifatida talqin etiladi. Chunki tana hamisha "yeyishni" talab qiladi.

Xan Gan ayol obrazini tush va ro'yo kesishmasida tasvirlash orqali bir necha muhim xulosalarni ilgari suradi: birinchidan, patriarhal tazyiq bo'lib, u ayolning o'z tanasiga nisbatan egalik huquqining yo'qligi (erining majburlab go'sht yedirishga urinishi)dir; ikkinchidan, psixologik travma bo'lib, bolalikdagi ota tomonidan ko'rsatilgan zo'ravonlik (it voqeasi) Yonxening



tushlarida qonli obrazlar bo‘lib qaytadi; uchinchidan, ekzistensial yolg‘izlik bo‘lib, qahramonning o‘zini daraxt deb hisoblashi – insonlar dunyosida muloqotning butunlay uzilganligini anglatadi.

Xullas, Xan Ganning “Vegetarianka” asarida ayolning tush va ro‘yodagi aksi bir-biriga zid keluvchi ikki dunyoni namoyon etadi. Tush – bu haqiqiy menlikning, isyonning maydoni; ro‘yo esa – azob va tushunmovchiliklar makoni. Yonxening daraxtga aylanish istagi – bu aqldan ozish emas, balki insoniyat amalga oshirayotgan global zo‘ravonlikdan qochib, poklikka intilishning ekstremal ko‘rinishidir. Asar zamonaviy ayolning ijtimoiy rollar va ichki erkinlik o‘rtasidagi halokatli kurashini mahorat bilan ko‘rsatib bergan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Хан Ган. Вегетарианка. – Москва: АСТ, 2025. – 320 с.